

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS)GA O'TISH BOSQICHLARI VA UNING AXAMIYATI

*Ismoilxo'jayeva O'g'iloy G'ani qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
buxgalteriya yo'nalishi talabasi,
asalasaliyeva@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: Sh.Sh.Akromov,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
“Bank ishi va buxgalteriya hisobi”
kaferdasi katta o'qituvchisi, sh.akromov@kiut.uz.*

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasida IFRSga o'tish jarayoni o'rganilgan, bu jarayonning qiyinchiliklari va oqibatlari tahlil qilingan. O'zbekiston tomonidan moliyaviy hisobot standartlarini IFRSga muvofiqlashtirish bo'yicha ko'rilib qadamlar, moliyaviy hisobot sifatining shaffofligiga ta'siri hamda o'tish davrida duch kelgan imkoniyatlar va muammolar o'rganib chiqilgan

Kalit so'zlar. moliyaviy hisobotning xalqaro standarti, moliyaviy hisobotning maqsad, 'zbekiston moliyaviy hisobotlash tizimi, joriy etish va monitoring.

O'zbekistonning mustaqil yuksalishi va rivojlanishi mobaynida keyingi yillarda ulkan yutuqlar qo'lga kiritilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Shuningdek "Buxgalteriya hisobi"ni rivojlantirish va jahon bozoriga kirib borishni jadallashtirish borasida bir qator ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, korxona va tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirishda, umuman, respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda moliyaviy hisobotning o'rni katta ahamiyatga ega. Shu borada, Prezidentimiz tomonidan 2020 yil 24 fevralda "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorga imzo chekilishi va unga binoan, 18 ta banddan iborat "Yo'l xaritasi" tasdiqlangani respublikamizda buxgalteriya hisobi yo'nalishida jiddiy o'zgarishlar bo'lishidan dalolat beradi. Shunday ekan, biz jahon bozoriga kirishga, mamlakatimizda qulay investitsion muhitni yaratishga va iqtisodiyotimizga chet el investitsiyalarini jalb etilishiga hamda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etilishiga intilayotgan ekanmiz, olib borayotgan faoliyatimiz ham xalqaro standartlarga mos bo'lishi zarur. Bunda, moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o'tishni tezlashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlari kengayadi.

Bu borada, buxgalteriya hisobi va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlari bo'yicha tayyorlash tizimi takomillashtiriladi. Xususan, bugungi kunda jamiyatda jadal kechayotgan o'zgarish va rivojlanishlar buxgalteriya

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

sohasida ham islohatlarning yangi bosqichi boshlanganini anglatadi, ya'ni davr mohiyatan milliylikda qolganligi sababli bugungi kunning dolzARB talabi nuqtai-nazaridan birmuncha orqada qolgan hisobchilikning an'anaviy tizimidan bosqichma-bosqich voz kechishni talab qilmoqda. Buxgalteriya hisobi tizimining bugungi kundagi vaziyati to'g'risida fikr yuritishdan oldin shuni alohida ta'kidlash o'rinniki, O'zbekistonda boshqa davlatlardagi kabi biznes sub'ektlarida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha aniq tartib joriy qilingan va takomillashtirilgan. Bunga dalil sifatida O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonunni va boshqa hujjatlarni misol qilib keltirsak bo'ladi. Ammo ushbu keltirilgan dalillarga qaramasdan biznes sub'ektlari boshqaruvi, bir tomondan faoliyatini rivojlantirish va moliyalashtirishda yig'ilib qolgan muammolar bilan izohlansa, boshqa tomondan yig'ilgan ma'lumotlar bazasi tashqi qiziquvchilar talablariga ham shaklan, ham mazmunan mos emasdi. Bu esa ularning e'tiboridan chetda qolishga asosiy omil bo'lib qolgandi. Vaholanki, har qanday biznes anqlik va shaffoflik ta'minlangan joyda rivoj topadi. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi kunda, iqtisodiyotning turli sohalarida besh yuz mingga yaqin xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobi milliy standartlar asosida yuritilib kelinmoqda. Biroq yangi zamonavi iqtisodiyotdagi ikki xil hisob tizimini solishtirishdagi oraliq masofa borgan sari uzoqlashib ketmoqda.

Buni o'tgan vaqtda amalga oshirilgan ishlar qadr-qimmatini qabul qilgan holda, aytish kerakki, iqtisodiyot ochiqlanmaganligi, erishilgan natijadorlik xalqaro maydonda oshkora etilmaganligi, ya'ni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim qilishning amaldagi an'anaviy tartibida xalqaro maydonda rasmiy tan olingan talablar emas, balki, ko'proq milliy iqtisodiyotning ustuvorligi yuqori qo'yilganligi bilan ta'riflasak to'g'ri bo'ladi. Hozirgi kundagi muhit tubdan o'zgardi. O'zbekiston tashqi dunyoga to'liq yo'l ochdi. Shuning uchun, bugungi kunda buxgalteriya va audit sohasi mutaxassislari oldiga hisobchilikni yangi dunyo munosabatlari tizimiga mos holda yo'lga qo'yish vazifasi yuklatilmoqda. Buning javobi esa oddiymas, sababi shundaki, bu borada bir qancha muammolar mavjud:

Birinchidan, avvalo xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining haqiqiy natijalarini aniqlash, ularning o'sishlarini tan olish, baholash va ochiqlashdagi amaldagi tartiblari iqtisodiy resurslarni bo'lg'usi haqiqiy egalari manfaatlariga mos kelmaydi.

Ikkinchidan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar daromad va xarajatlarining aniq o'lchanigan qiymatlari potensial qiziquvchilar manfaatlariga mos kelmaydi. Bunda foydaning aniqligi, naqdligi va sifatini ta'minlash nazarga olinmoqda.

Uchinchidan, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim qilishdagi o'rinsiz, ortiqcha, o'zgarmaydigan talablarning belgilab qo'yilganligi, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'z mulklari doirasida aniq boshqaruv qarorlarini tayyorlashda buxgalteriya hisobining mayda birliklarigacha qat'iy tartibning belgilab qo'yilgani buxgalteriya mutaxassislarining erkin va kasbiy tajribaga tayangan holda xulosa tayyorlash

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

hamda ularni manfaatdorlarga taqdim qilish imkoniyatini bermaydi. Bu biznes vakillari haqiqiy vaziyatni o'zлari istagan tarzda emas, ular foydalanayotgan resurslar egalari xohlagan tarzda ko'radi, deganidir.

To'rtinchidan, hozirgi paytgacha buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobot tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda tashqi nazoratga ustunlik berilgan edi. Odatda nazoratning ichki turiga ko'proq ahamiyat berish talab etiladi, ya'ni ichki nazorat to'g'ri va samarali tashkil etilsa, tashqi nazoratga zaruriyat qolmasligi xalqaro standartlarning eng muhim sharti deb belgilanadi.

Beshinchidan, buxgalteriya hisobining milliy standartlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga qanchalik moslashtirilsa ham, axborotlar oqimi ochiq bo'lmasa, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning haqiqiy moliyaviy ahvoli, natijalari va ularning o'zgarishlarini aniq tasvirlash imkonи bo'lmaydi. Shuni aytish mumkinki, Prezidentimizning 2020 yil 24 fevraldagи "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini yo'lga qo'yish hamda buxgalteriya sohasidagi jiddiy o'zgarishlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Shunday qilib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan qo'llanilayotgan va yuritilayotgan buxgalteriya hisobi tartib-qoidalarida xalqaro normalarga nomuvofiqlik darajasining ayrim jihatlarini tilga olib o'tamiz. Ayniqsa, shu vaqtgacha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tashqi investitsiyalar oqimi bo'yicha kapital oqimiga doimiy tayyorlab borish strategiyasi yo'q, ya'ni xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning birontasida o'zining muvaffaqiyatli investitsion tarixi yaratilmagan. Biznesning haqiqiy, potensial qiymatini aniqlashga mulkdorda ham, davlatda ham qiziqish bo'lмаган. Muvaffaqiyatli shartnomalarga kelishishda biznesda hisobchilik ishlarining auditorlik xulosasi hech qanday ta'sirga ega bo'lмаган. Ichki nazoratni joriy qilishning amaldagi tartibi boshqaruvning qay darajada ekanligiga bog'lanmagan. Tartibli jamoani tashkil etishda kadrlar muammosi muhimligicha qolmoqda. Shu kabi holatla buxgalteriya hisobining rivojlanishini, uning integratsion jarayonlarga to'liq moslashuvini, hozirgi kundagi globallashuv jarayonida axborotlarning yagona makonini yaratishga to'sqinlik qiladi.

Xalqaro standartlarni rasmiy e'lon qilinadigan hisobotlarda, boshqaruv faoliyatining natijadorligini ob'ektiv hamda haqiqiy va aniq aks ettirishga, biznesning uzoq davom etishi, rivojlanishi va taraqqiyotning tendensiylarini aniq ko'ra bilishga va qabul qilishga imkon beradi. Bu esa jalb etiladigan tashqi investitsiyalar hajmini ko'paytirishga, xalqaro aloqalarni mustahkamlanishiga, kuchli qobiliyatga ega xaridorlar guruhini yaratishga, umuman olganda xalqaro doirada obro'-ye'tibor oshishiga imkon yaratadi. Shu paytgacha moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari rasmiy ravishda to'rtda – frunsuz, nemis, rus va polyak tillariga tarjima qilingan. Hozirgi vaqtda esa xitoy, yapon, portugal va ispan tillariga tarjima qilish harakatlari ketmoqda. Norasmiy tartibda esa 30 dan ortiq tillarga, shu jumladan, o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. Bu esa

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

yuqoridagi qaror ijrosini ta'minlashga imkon beradi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy, mulkiy va moliyaviy ahvolini, ularning o'tgan davrlardagi moliyaviy natijalarini solishtirib, ob'ektiv baholash orqali kelajakdagi faoliyatini yanada kengaytirish, tashqi moliyaviy manbaalarni qidirib topish, hamda xalqaro moliyaviy institutlardan kapital jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Ushbu islohotlar, birinchi galda, yirik biznes sub'ektlarining MHXSga o'tishlariga qaratilgan "Yo'l xaritasi" bo'lib, ularda an'anaviy tarzda yuritilib kelingan hisob tizimi tubdan qayta ko'rib chiqilishini nazarda tutadi. Ayniqsa, ushbu "Yo'l xaritasi" da respublikamizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlar, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashi kerakligi qonun hujjatlarida keltirib o'tildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: O'quv qo'llanma /D.E.Norbekov, A .N .To'rayev, Sh.Sh.Rahmonov; - T.: «Iqtisod-Moliya», 2019-32b.
2. aniq.uz/uz/yangiliklar/iqtisodiyotga-mahalliy-va-xorijiy-xususiy-investisiyalarni-kupaytirish-uchun-sharoitlarni-yanada-yaxshilash-ustuvor-yunalish-buladi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
4. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik / Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2019. - 400 bet.
5. Uzbekiston Respublikasi Prezidentning 404-sonli qaroriga asosan yangi tahrirdagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, 13.04.2016 yil, 22-modda / lex.uz
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentinina PQ=1438 sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanadi isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalgaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori. 26.11.2010 yil. //lex.uz
7. Karimov A.A, Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Imamova N.M. Xalqaro molivaviv hisobot standartlari, Darslik, - T.:2021, 332 b.
8. Choriev I.X. Auditorlik faoliyatida tahliliy amallarni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: «Iqtisod-moliya»nashriyoti, 2021, - 21-26 b.
9. Юлдашев, Ж. А. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА МИЖОЗЛАР БИЛАН МУНОСАБАТЛАР ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ УСУЛИНИ ТАКОМИЛАШТИРИШ.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

10. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 4 (2024), 754–759
11. Кличев, Б. (2022). КРІ ТИЗИМИ АСОСИДА МОДДИЙ РАФБАТЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ТАХЛИЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1343>
12. Klichev Bakhtiyor Pardayevich. (2024). Problematic Aspects of Organizing Cvp-Analysis in the Enterprises of Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 5(5), 241–248. Retrieved from <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/4906>
13. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 86–94. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3251>
14. Косимович, Я. У. (2024). Ташқи савдо фаолиятида мақбул ечимни топиш масалаларини тахлили. *World scientific research journal*, 26(2), 199–205.
15. Tulaev, M. (2024). Moliyaviy hisobot konsepsiyalari. *Nordic_Press*, 2(0002).
16. КЛИЧЕВ, . Б. П. (2022). ИШБИЛАРМОНЛИК ФАОЛЛИГИ ТАХЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>
17. Кличев, Б. (2023). Корхоналарда маҳсулот ишилаб чиқарии ҳажми таҳлилини тақомиллаштириши масалалари. *Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики*, 1(01), 170–173. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp170-173>
18. Qlichev, B. (2024). Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda operatsion faoliyat tahlilining zarurligi. *Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari, Konferensiya to 'plami. Termiz, O'zbekiston. 15-iyun 2024-yil*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11909171>
19. Yakupbaevich, I. J. ., Abrarovich, Y. J. ., Akhtamovich, H. S. ., & Bekmurodova. (2023). COMMERCIAL BANKING, CREDIT OPERATIONS, PROVISION OF COLLATERAL, ASSESSMENT MECHANISMS. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIIYA JURNALI / JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 2(4), 6–13. Retrieved from <https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/251>
20. Кличев Бахтиёр Пардаевич, (2023). Корхоналарда маҳсулот ишилаб чиқарии ҳажми таҳлилини тақомиллаштириши масалалари. *Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(7), 42–49. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2782>

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

21. Abdullayev, A., & Djamalov, H. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF THE INTERNAL CONTROL SERVICE FOR THE FULFILLMENT OF TAX OBLIGATIONS OF ENTERPRISES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 8(4), 297-307.
22. Худоёров О.О. (2023). Банк тизимини рақамлаштириш шароитида рақамли банк технологияларини жорий қилиш . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(7), 99–107. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2788>
23. Xudoyorov, O. O. (2023). Bank daromadlarini oshirishda masofaviy bank xizmatlarini tutgan o ‘rni.
24. Odilovich, K. O. (2024). IMPACT OF REMOTE BANKING SERVICES ON BANK INCOME. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(6), 82-86.
25. Klichev, B.P., Tulaev, M.S. (2021). Issues of development of the analysis of business activity in joint-stock companies of Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 11, November 2021, 584-591. <https://doi.org/10.5958/2249-7137.2021.02539.8>
26. Majidov, J. K. (2019). Ways of improving management of credit portfolio at commercial banks. *International Journal of Research in Social Sciences*, 9(3), 725-736.
27. Мажидов Ж. (2024). Тижорат банклари активлар портфелларининг сифатини ошириш бўйича хориж тажрибаси ва унинг ўзига хос хусусиятлари. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1463-1467. <https://pedagoglar.org/index.php/02/article/view/3878>

